



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA 2019 YIL YANVAR-OKTYABR OYLARI UCHUN SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLAR

Sanoat mahsuloti hajmi

10457,4 mlrd.so'mni,

sanoat ishlab chiqarish

indeksi 105,4 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 1851,5 mlrd.so'mni va o'sish sur'ati 108,6 % tashkil etdi.

Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi

17,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi –


24,3 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 10457,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,4 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 87,5 % tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishbing o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 8,2 % tashkil etti.

2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da



● Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (indeks - 104,8 %)

● Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlaydigan sanoati) (indeks - 105,7 %)

● Elektr gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash (indeks - 102,9 %)

● Suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (indeks- 98,4 %)




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 346,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 12,3 % ga, chaqiq tosh 44,2 % ga oshganligini kuzatish mumkun. Gaz kondensati 6,9 % ga, tabiiy gaz 2,4 % ga pa'sayishi kuzatildi.

TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI






ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9153,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 87,5 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 % (2018-yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 2,2 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali 65,1 % (71,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 7,1 % (4,7 %) va quyi texnologiyali 25,9 % (22,0 %) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



● Yuqori texnologiyali
● Quyi texnologiyali

● O'rta-yuqori texnologiyali

● O'rta-quyi texnologiyali

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan, yumshoq bug'doy uni 2,0 % ga, bug'doy noni 6,8 % ga, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa 4,7 %, polietilen 1,7% ga va ga oshganligini va paxta tolasi, makaron mahsuloti, karbonat dinatriya o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.



ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2018 yil yanvar-oktyabr
ishlab chiqarilgan

OZIQ-OVQAT
MAHSULOTLARI

2019 yil yanvar-oktyabr
ishlab chiqarilgan



923437,8
mln.so'm




Fizik hajim indeksi
108,5 % da



1292812,3
mln.so'm



91067,9
mln.so'm



Fizik hajim indeksi
110,1 % da



132749,0
mln.so'm



ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2018 yil yanvar-oktyabr
ishlab chiqarilgan



TEKSTIL MAHSULOTLARI




Fizik hajim indeksi
117,9 %

2019 yil yanvar-oktyabr
ishlab chiqarilgan



FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI VA PREPARATLARI



Fizik hajim indeksi
147,0 % da



**Yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik
sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	2019 yilda ishlab chiqarilgan	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Paxta tolasi, t	29898,0	39342,0	76,0
O'simlik yog'i (tozalangan), t	7736,4	8276,2	93,5
Tozalangan guruch, t	2887,4	3772,0	76,5
Yumshoq bug'doy uni, t	65650,6	64389,9	102,0
Bug'doy noni, t	2248,6	2105,1	106,8
Makaron mahsuloti, t	876,1	2455,9	35,7
Yirik shoxli qoramollar uchin tayyor ozuqa, t	34641,6	33095,2	104,7
Aroq, ming.l. 100% spirt	3412,8	3409,7	100,1
Karbonat dinatriya, ming.t.	154,0	154,7	99,6
Polietilen, t.	298632,1	293587,1	101,7
Polipropilen, t.	77868,6	77242,3	100,8

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 854,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,2 %) ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,9 % ga, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish 2,6 % ga kamayishi kuzatildi.



SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 102,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 25,5 % ga pasayganligi va oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 18,9 % ga, suvgaga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 29,6 % ga, xafsiz bo'lgan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 3,5 martaga oshganligi kuzatildi.

ISTE'MOL TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1851,5 mlrd.so'mni o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,6 % ni tashkil etti va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 17,7 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, % da






ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 948,4 mlrd.so'mni tashkil etib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 51,2 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 775,9 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 41,9 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 127,2 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 6,9 % tashkil etdi.


2019 YILNING YANVAR-OKTYABR OYLARIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA

Respublika bo'yicha
iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmida eng ko'p
ulush Nukus sh.
(respublika bo'yicha
iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmining 34%
ulushini)
To'rtko'l (8,9%), Xo'jayli
(8,6%), Qo'ng'irot (6,9%),
Beruniy (6,8%).
Shu bilan
birga eng kam ulush
Mo'ynoq
(respublika bo'yicha
iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmining 0,9
%), Taxtako'pir (1,1%) va
Qonliko'l (1,5 %)
tumanlari hissasiga to'g'ri
kelmoqda.





Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati.




Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushni Kegayli tumani (166,4 %), Chimboy tumani (129,1 %), Qo'ng'iroq tumani (118,8 %), Taxtako'pir tumani (114,2 %) tashkil etadi.

Shu bilan birga eng kam ulushi Amudaryo tumani, Xo'jayli tumani va Ellikqal'a tumani (100,0 %), Qorao'zak tumani (100,6 %), Qonliko'l tumani (101,0 %) xissasiga tug'ri keladi.



Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %



Chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobat davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6206,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobat davrida xoriji investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumi ishlab chiqarishdagi ulushi 59,3 % ni tashkil etti.



*Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmdagi ulishi, %*



- Xoriji investitsiya ishtirokidagi korxonalar
- Respublikaning boshqa korxonalari



- Xoriji investitsiya ishtirokidagi korxonalar
- Respublikaning boshqa korxonalari



HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus sh (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 64,2 % ulushini), Taxiatosh tumani (7,8 %), Xo'jayli tumani (3,1 %), Mo'ynoq tumani (2,9 %) va Amudaryo tumani (2,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Taxtako'pir (0,5 %), Shumanay (0,5 %), Nukus (0,6 %), tumanlariga to'g'ri keladi.


2019 YILNING YANVAR-OKTYABR OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi tahlili Nukus shahrida (21213,8 ming.so'm), Taxiatsosh (11114,0 ming.so'm), Mo'ynoq (9479,3 ming.so'm) tumanlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (5563 ming.so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi, (ming.so'mda)
(2019 yil yanvar-oktyabr oylari ushun)





Respublika bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha istemol tovarlari ishlab chiqarish 984,9 ming.so'm bulgan holda Nukus shahrida 1988,4 ming.so'mni, Taxiatosh tumanida 1550,7 ming.so'mni, Xo'jayli tumanida 1306,9 ming so'mni tashkil qildi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga
istemol tovarlari ishlab chiqarishi, (ming.so'mda)
(2019 yil yanvar-oktyabr oylari ushun)**





SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI


Hisobat davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2538,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobat davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 24,3 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay va Ellikqal'a (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100%), Qorao'zak (99,99 %), Taxtako'pir (99,7%) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (7,8 %), Mo'ynoq (13,0 %), Taxiatsosh (14,2 %) tumanlarida kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA






Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.

Bugungi kunda respublikada 2271 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 659 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalarning qariyib 55,8 % Nukus shahri, Beruniy, Qorao'zak, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yil 1 noyabr holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik



Q.R Statistika boshqarmasi
sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (61) 222-75-87